



MILLIY IQTISODIYOTDA INNOVATSION TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI BIZNES-MODELLARINI MOLİYALASHTIRISH VA RISKLARNI BAHOLASH MEXANIZMLARI

Samiyev Abdurashid

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0002-0392-1019

abdurashidjonsamiyev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotda innovatsion tadbirkorlik subyektlari, xususan startap ekotizimlarining biznes-modellarini moliyalashtirish tendensiyalari va ular bilan bog'liq risklarni baholash mexanizmlari tadqiq etilgan. Bugungi raqamli transformatsiya sharoitida startap loyihalarni an'anaviy va muqobil moliya instrumentlari (venchur kapitali, kraudfanding) orqali qo'llab-quvvatlash tizimi tizimli tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion biznes-modellarning barqarorligi ularning moliyaviy oqimlarini to'g'ri prognozlash va o'ziga xos risk omillarini minimallashtirish strategiyalariga bog'liq. Xulosada milliy startap loyihalarning moliyaviy barqarorligini oshirish va ularning biznes-modellaridagi risklarni kamaytirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion tadbirkorlik, startaplar, biznes-model, venchur moliyalashtirish, risklarni baholash, kraudfanding, moliyaviy barqarorlik, risk-menejment.

МЕХАНИЗМЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ И ОЦЕНКИ РИСКОВ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ СУБЪЕКТОВ ИННОВАЦИОННОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ

Самиев Абдурашид

Ташкентский государственный

экономический университет

Аннотация. В данной статье исследуются тенденции финансирования бизнес-моделей субъектов инновационного предпринимательства, в частности стартап-экосистем, в национальной экономике и механизмы оценки связанных с ними рисков. Системно проанализирована структура поддержки стартап-проектов посредством традиционных и альтернативных финансовых инструментов (венчурный капитал, краудфандинг) в условиях современной цифровой трансформации. Результаты показывают, что устойчивость инновационных бизнес-моделей зависит от правильного прогнозирования их финансовых потоков и стратегий минимизации специфических факторов риска. В заключении разработаны практические предложения по повышению финансовой устойчивости национальных стартап-проектов и снижению рисков в их бизнес-моделях.

Ключевые слова: инновационное предпринимательство, стартапы, бизнес-модель, венчурное финансирование, оценка рисков, краудфандинг, финансовая устойчивость, риск-менеджмент.

MECHANISMS OF FINANCING AND RISK ASSESSMENT OF BUSINESS MODELS OF INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP SUBJECTS IN THE NATIONAL ECONOMY

Samiev Abdurashid

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article examines the financing trends of business models of innovative entrepreneurship subjects, particularly startup ecosystems, in the national economy and mechanisms for assessing related risks. The support framework for startup projects through traditional and alternative financial instruments (venture capital, crowdfunding) under current digital transformation has been systematically analyzed. The results show that the sustainability of innovative business models depends on the correct forecasting of their financial flows and strategies for minimizing specific risk factors. In conclusion, practical proposals have been developed to increase the financial sustainability of national startup projects and reduce risks in their business models.*

Keywords: *innovative entrepreneurship, startups, business model, venture financing, risk assessment, crowdfunding, financial sustainability, risk management.*

Kirish.

Zamonaviy global iqtisodiy taraqqiyot sharoitida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash bevosita innovatsiyalarni joriy etish hamda innovatsion tadbirkorlik muhitini shakllantirish bilan belgilanadi. Bugungi kunda yuqori texnologiyalarga asoslangan, moslashuvchan va tez o'suvchi biznes-modellarga ega bo'lgan innovatsion tadbirkorlik subyektlari (startaplar) iqtisodiyotni harakatlantiruvchi asosiy drayverlardan biriga aylanmoqda. Bunday subyektlar yangi ish o'rinlarini yaratish, intellektual mulk ob'ektlarini tijoratlashtirish va iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli yechimlarni olib kirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda startap ekotizimini rivojlantirish, yoshlarning innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlash va ilm-fanni ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish borasida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, xalqaro amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, yangi tashkil etilgan innovatsion korxonalarining (startaplarning) taxminan 80-90 foizi faoliyatining dastlabki yillaridayoq muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Buning eng asosiy sabablaridan biri sifatida ularning o'ziga xos innovatsion biznes-modellarini moliyalashtirish mexanizmlarining mukammal emasligi hamda moliyaviy-iqtisodiy risklarni baholash va boshqarish tizimining yetarli darajada shakllanmaganligidir.

Startaplarni yuqori riskli tabiati mavjudligi sababli ularni bank-moliya tizimi tomonidan moliyalashtirish uchun cheklov qo'yimoqda. Bu esa venchur kapitali, kraudfanding va davlat grantlari kabi muqobil moliyaviy instrumentlarni jalb qilish hamda ushbu munosabatlarni to'g'ri modellashtirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, startaplarning biznes-modellarining barqarorligini ta'minlash uchun bozor, operatsion va moliyaviy risklarni tizimli baholash uslubiyoti milliy iqtisodiyotimiz xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mukammallashtirishni talab etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Innovatsion tadbirkorlik subyektlari va startaplarning biznes-modellarini moliyalashtirish hamda ularning risklarini baholash masalalari xalqaro va mahalliy darajada keng tadqiq etilayotgan iqtisodiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Global miqyosda startap ekotizimlarining moliya zanjirini o'rgangan olimlardan Schumpeter (1934) o'zining klassik nazariyasida innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri va tadbirkorlikni "ijodiy buzg'unchilik" (creative destruction) jarayoni sifatida baholagan. Zamonaviy sharoitda esa

startaplarning an'anaviy biznes g'oyalardan farqli ravishda yuqori o'sish sur'atiga (scalability) ega ekanligi moliya bozorida mutlaqo yangi biznes-modellarni taqozo etmoqda (Ries, 2011).

Xalqaro amaliyotda startap loyihalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda venchur kapitali va muqobil moliyalashtirish instrumentlarining o'rni juda yuqori baholanadi. Gompers va Lerner (2004) o'z tadqiqotlarida venchur fondlarining asimmetrik axborot va yuqori noaniqlik sharoitida risklarni boshqarish mexanizmlarini tahlil qilib, ularning monitoring tizimi startaplar yashovchanligini oshirishini isbotlagan. Shu bilan birga, raqamli moliya bozorining rivojlanishi natijasida kraudfanding va investitsion platformalar startaplar uchun boshlang'ich kapital (seed capital) yig'ishning eng samarali innovatsion biznes-modeliga aylandi (Belleflamme va boshq., 2014).

Biroq, innovatsion biznes-modellarning barqarorligi ularning risk darajasini to'g'ri baholashga bevosita bog'liq. Knight (1921) tomonidan asos solingan "noaniqlik va risk" tushunchasi startap ekotizimida yaqqol namoyon bo'ladi. Ko'pgina xalqaro tadqiqotchilar startaplardagi risklarni nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar, balki bozor kon'yukturasining o'zgarishi, jamoaning intellektual salohiyati va texnologik konseptning mukammalligi kabi sifat omillari orqali baholash zarurligini ta'kidlaydilar (Schwab, 2018).

Shuningdek, milliy startap muhitini shakllantirishda davlatning strategik roli va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar mamlakatda venchur moliyalashtirish tizimini rivojlantirish, startap loyihalariga xususiy kapitalni jalb etish va soliq imtiyozlari orqali ularning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ko'zda tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Milliy iqtisodiyotda innovatsion tadbirkorlik subyektlari (startaplar) biznes-modellarini moliyalashtirish mexanizmlarini o'rganish va ulardagi risk omillarini baholash tizimini shakllantirish uchun mazkur tadqiqotda kompleks uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasining asosi tizimli iqtisodiy tahlil, qiyosiy baholash hamda risk-menejmentning sifat va miqdoriy usullari kombinatsiyasiga tayanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Milliy iqtisodiyotda innovatsion tadbirkorlik subyektlari (startaplar) biznes-modellarining moliya zanjirini o'rganish, ularning global tendensiyalarga moslashuvchanligini baholashni taqozo etadi. Jahon bankining (World Bank, 2025) global raqamli taraqqiyot va venchur bozori hisobotlari hamda "Global Startup Ecosystem Report" (GSER, 2025) xalqaro tahliliy ma'lumotlari asosida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, startap loyihalarning hayotiylik davrida muqobil moliya instrumentlarining o'rni an'anaviy bank kreditlariga qaraganda bir necha barobar yuqori.

Xalqaro va milliy miqyosda startap subyektlarining boshlang'ich va rivojlanish bosqichlaridagi moliyaviy oqimlar tarkibini tizimli guruhlash asosida quyidagi jadval shakllantirildi:

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, jahon amaliyotida startaplarni moliyalashtirishning 40 foizi aynan yuqori riskli venchur kapitali hissasiga to'g'ri keladi. An'anaviy bank kreditlarining ulushi esa juda past (2%). O'zbekiston amaliyotida esa startap loyihalar ko'proq mualliflarning shaxsiy mablag'lari (45%) hamda davlat grantlari (20%) hisobiga shakllanmoqda. Bu esa milliy iqtisodiyotda venchur fondlari va kraudfanding kabi innovatsion moliya modellarining jozibadorligini va huquqiy kafolatlarini yanada oshirish zarurligini ko'rsatadi.

1-jadval

Global va milliy amaliyotda startaplar biznes-modellarini moliyalashtirish manbalarining o'rtacha tarkibiy qismlari, foizda

№	Moliyalashtirish manbalari va instrumnetlari	Global (Jahon banki va GSER ma'lumotlari) ko'rsatkichlar	O'zbekiston bo'yicha (IT park hisobotlari) ko'rsatkichlar
1	Shaxsiy jamg'armalar (FFF-Founders, Family, Friends)	22%	45%
2	Davlat grantlari va subsidiyalar	8%	20%
3	Venchur kapitali va investitsiya fondlari	40%	12%
4	Biznes egalari (xususiy investorlar)	18%	13%
5	Kraudfanding va raqamli platformalar	10%	5%
6	An'anaviy bank kreditlari va qar mablag'lari	2%	5%
	Jami:	100%	100%

Manba: World bank, 2025, Global Startup Ecosystem Report (GSER, 2025) va IT park hisobotlari ma'lumotlari.

Startap loyihalarining muvaffaqiyatsizlikka uchrashi va yuqori risk darajasi xalqaro iqtisodiy tadqiqotlarda eng ko'p muhokama qilinadigan masalalardan biridir. "Startup Genome" global tahliliy markazi ma'lumotlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan innovatsion korxonalarining qariyb 90 foizi moliya bozorida o'z o'rnini topa olmaydi. Mazkur muvaffaqiyatsizliklarning kelib chiqish sabablari va ularning risk omillari bo'yicha ulushi quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

2-jadval

Global miqyosda startap loyihalarining muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga sabab bo'luvchi asosiy risk omillarining ulushi, foizda

Risk omillari	Foizdagi ulushi
Bozor riski	42%
Moliyaviy risk	29%
Jamoaviy boshqaruv riski	23%
Marketing siyosatidagi xatoliklar	6%

Manba: "Startup Genome" xalqaro tadqiqot markazi hisobotlari ma'lumotlari.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, startap biznes-modellarining tugashiga olib keluvchi eng katta risk — Bozor riski (Market Risk - 42%) hisoblanadi, ya'ni loyiha taklif etayotgan mahsulot yoki xizmatga bozorda real ehtiyojning mavjud emasligi (No market need). Ikkinchi eng muhim omil — Moliyaviy risk (Financial Risk - 29%) bo'lib, u investitsion oqimlarning to'xtab qolishi yoki kapital tugashi (Ran out of cash) bilan bog'liq. Shuningdek, jamoaviy boshqaruv risklari (Team Risk) 23 foizni va marketing siyosatidagi xatoliklar (Marketing flaws) 6 foizni tashkil etadi.

Ushbu global ko'rsatkichlarni O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida muhokama qiladigan bo'lsak, milliy startaplarni barqarorlashtirish uchun avvalo moliyaviy risklarni kamaytiruvchi venchur infratuzilmasini kengaytirish va bozor riskini sug'urtalovchi dasturlarini tizimli yo'lga qo'yish talab etiladi.

Xulosa va takliflar.

Milliy iqtisodiyotda innovatsion tadbirkorlik subyektlari (startaplar) biznes-modellari doirasida olib borilgan tizimli va qiyosiy tahlillar quyidagi muhim xulosalarni shakllantirishga imkon beradi:

Startap loyihalari o'zining yuqori riskli tabiati sababli an'anaviy moliya instrumentlaridan (bank kreditlaridan) foydalanish imkoniyatiga ega emas. Jahon amaliyotidan farqli o'laroq, respublikamizda startaplar hali ham ko'proq shaxsiy mablag'lar (45%) va davlat grantlari (20%) hisobiga moliyalashtirilmoqda, venchur kapitali ulushi esa pastligicha qolmoqda.

Global tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, startap biznes-modellari muvaffaqiyatsizligining asosiy sabablari bozor riski (42%) va moliyaviy risklar (29%) bilan bog'liq. Ya'ni, mahsulotga bozorda real talabning to'g'ri baholanmasligi va investitsiya oqimlarining vaqtida ta'minlanmasligi startaplarning tugashiga olib keladi.

Olingan ilmiy-amaliy natijalardan kelib chiqib, milliy startap loyihalarining moliyaviy barqarorligini oshirish va ularning biznes-modellari doirasidagi risklarni kamaytirish uchun muqobil moliya platformalarini rivojlantirish, venchur moliyalashtirish ekotizmini kengaytirish hamda bozor risklarini minimallashtirish lozim.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

IT Park Uzbekistan (2025) Report on the development of the startup ecosystem and IT visa metrics in Uzbekistan for 2024.

World Bank (2025) Digital development global practice: Digitalization is the transformative opportunity of our time. Washington, DC: World Bank.

Global Startup Ecosystem Report (2025) The Global Startup Ecosystem Report GSER 2025. San Francisco: Startup Genome.

Ries, E. (2011) The Lean Startup: How Today's Entrepreneurs Use Continuous Innovation to Create Radically Successful Businesses. New York: Crown Business.

Schumpeter, J.A. (1934) The Theory of Economic Development. Cambridge, MA: Harvard University Press.

Schwab, K. (2018) Shaping the Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum.

Belleflamme, P., Lambert, T. va Schwienbacher, A. (2014) 'Crowdfunding: Tapping the right crowd', Journal of Business Venturing, 29(5), b. 585-609.

Gompers, P. va Lerner, J. (2004) The Venture Capital Cycle. Cambridge, MA: MIT Press.

Knight, F.H. (1921) Risk, Uncertainty and Profit. Boston, MA: Hart, Schaffner & Marx.

O'zbekiston Respublikasi Qonuni (24.07.2020) Innovatsion faoliyat to'g'risidagi O'RQ-630-son Qonun.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (11.09.2023) "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni.